



DIALECTICS OF ETHICAL TEACHINGS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS IN THE DEVELOPMENT OF BIOETHICS

Nargiza Akmalovna Umirzakova

PhD, associate professor

Tashkent State Medical University

n.a.umirzakova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: bioethics, integration, interdisciplinarity, ethical theories, modern science, morality, ethics, medicine, life, goodness.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: Bioethics, as an interdisciplinary science, aims to analyze and resolve problematic situations and dilemmas arising in modern medicine. Bioethics as a science integrates medical and biological knowledge with universal human values, evaluating physician actions regarding human life and health from the perspective of moral values and principles. Understanding the essence and role of bioethics in modern science requires a thorough study and understanding of philosophical and ethical theories. Understanding the essence and role of bioethics in modern science requires a deep study and understanding of philosophical and ethical theories. In this article, the author explores the genesis and dialectic of the philosophical and ethical teachings that serve as the theoretical foundation of bioethics.

BIOETIKA RIVOJIDA FALSAFIY NEGIZLAR VA AXLOQIY TA'LIMOTLAR DIALEKTIKASI

Nargiza Akmalovna Umirzakova

PhD, dotsent

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

n.a.umirzakova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bioetika, integratsiya, fanlararo, axloqiy nazariyalar, zamonaviy fan,

Annotatsiya: Bioetika fanlararo fan sohasi bo'lib, zamonaviy tibbiyotda yuzaga

axloq, axloq, tibbiyot, hayot, ezgulik.

keladigan muammoli vaziyatlar va munozarali masalalarni tahlil qilish va hal etishga qaratilgan. Bioetika tibbiy va biologik bilimlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan birlashtiradi, shifokorning inson hayoti va sog'lig'iga oid harakatlarini axloqiy qadriyatlar va tamoyillar nuqtai nazaridan baholaydi. Zamonaviy fanda bioetikaning mohiyati va rolini tushunish falsafiy va axloqiy nazariyalarning rivojlanishini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu maqolada muallif bioetikaning nazariy asosi bo'lib xizmat qilgan falsafiy va axloqiy ta'limotlarning genezisi va dialektikasini o'rganib, o'z mulohazalarini bildirdi.

ДИАЛЕКТИКА ЭТИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ И ФИЛОСОФСКИХ ОСНОВАНИЙ В РАЗВИТИИ БИОЭТИКИ

Наргиза Акмаловна Умирзакова

PhD

Ташкентский государственный медицинский университет

dozent.n.a.umirzakova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	биоэтика, интеграция, междисциплинарность, этические теории, современная наука, нравственность, мораль, медицина, жизнь, добро.	Аннотация:	Биоэтика, будучи междисциплинарной наукой, направлена на анализ и решение проблемных ситуаций и дилемм, возникающих в современной медицине. Биоэтика как наука интегрирует в себе медико-биологические знания и общечеловеческие ценности, оценивает действия врача касательно жизни и здоровья человека с точки зрения нравственных ценностей и принципов. Чтобы понять сущность и роль биоэтики в современной науке требуется глубокое изучение и осмысление философских и этических теорий. В данной статье автор исследует генезис и диалектику философских и этических учений, послуживших теоретическим фундаментом биоэтики.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. Bioetika o'tgan asrning 70-yillarida yaratilgan ta'limot bo'lib, u biotibbiy faktlar va axloqiy qadriyatlar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin etildi. Zamonaviy ilm-fanda bioetikani yuzaga kelishi genezisini tushuntirishda falsafiy hamda ijtimoiy-axloqiy nazariyalarni chuqur o'rganish talab etiladi. Dastlab bioetikani fan sifatida shakllanishida axloqiy hodisalarni

tushuntirish uchun yaratilgan an'anaviy mumtoz axloqshunoslik ta'limotlari nazariy poydevor deb qarab kelingan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bioetika fan sifatida tasodifan paydo bo'lmagan, balki u tarixan tarkib topgan yaqqol nazariy va falsafiy, ijtimoiy-axloqiy negizlarga ega bo'lib, ularga Aristotelning fazilatlar nazariyasi, Immanuil Kantning axloqiy burch haqidagi ta'limoti, ezgulik va yaxshilik to'g'risidagi utilitaristik konsepsiyalar, naturalistik axloq ta'limoti, U.D.Rossning axloqiy majburiyatlar nazariyasi, Dj.Rolzning adolat nazariyasi, postmodernizm etikasining ba'zi yo'nalishlari ta'limotlarini ta'luqli sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Biotibbiyot va unga asoslangan texnologik innovatsiyalar sohasidagi ilmiy taraqqiyotning jamiyat hayotidagi samarasini to'g'ri ta'minlash uchun klinik tibbiyotda yangi nazariy bilimlarni qo'llashdan oldin ularning inson sog'ligi va xayotiga ta'sirlarini optimal prognozlash, har tomonlama xolis baholash zaruriyati kun sayin ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlarni ijtimoiy baholash hilma-hil, ko'p qirrali va o'ta ziddiyatli jarayon bo'lib, fanning ijtimoiy-madaniy xodisa sifatida rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarining rang-barangligi bilan belgilanadi. Tibbiy axloq haqidagi qarashlar mohiyatan tibbiyotni insonparvarlashtirish masalasiga mos bo'lib, ilk bor Gippokrat, Galen ma'naviy merosida sodda shaklda ifoda etilgan. Sharq mutafakkirlari Is'hoq ibn Al-Ruhoviy, Zakariyo al-Roziy, Abu Ali Ibn Sinolar «Odob al-tabib» axloqiy qadriyatlar tizimini yaratdilar. G'arb mutaffakirlari bioetikaning nazariy asoslarini o'rganib, uning evolyutsiyasini tahlil qilishgan. Amerikalik D.Kallaxan, E.Pellegrino, U.T.Rayx, T.Engelgart, germaniyalik X.Yonas, fransiyalik D.Grasia, inglizlik M.Charlzvort, italiyalik E.Sgrechcha, V.Tambone kabi xorij olimlari bioetika bo'yicha fundamental tadqiqot ishlarini olib borishgan. G'arbda bioetikaning insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan va ma'lum bir davrning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bioetika fanini yuzaga kelishi va shakllanishida ham aks etgan. MDH olimlari A.Ya.Ivanyushkin, G.P.Mikirtichan, T.V.Mishatkina, I.V.Siluyanova, P.D.Tishenko, B.G.Yudin, Ya.S.Yaskevich ilmiy asarlarida bioetikaning falsafiy asoslarini, uning dunyoqarash va fan sifatida paydo bo'lishi, shakllanishi tasodifiy ro'y bermaganligi, bir qancha zaruriy omillar, shart-sharoitlar, obyektiv sabablar ta'siri oqibatida yuzaga kelgani haqida ilmiy dalillar keltirgan. M.S.Abdullaxodjayeveva, Z.M.Muxamedova, D.A.Asadov kabi yurtimiz olimlari tomonidan O'zbekistonda bioetikaning dolzarb muammolari o'rganilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Bioetika zamonaviy tibbiyot, tabiatshunoslik fanlarining fundamental yutuqlari va ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi va sintezining noyob shakli bo'lib, bu omillar bioetikani falsafiy fan deb atashga asos bo'ladi. U ijtimoiy fanlar tizimida munosib o'ringa egaligi maqolada asoslandi. Bioetikaning kasallik, o'lim va yangi tibbiyot texnologiyalarining oqibatlarini madaniy jarayonlarga ta'siri muammolarini o'rganishi

mamlakatimizda ijtimoiy antropologiyani zamonaviy talqin etish va rivojlantirish uchun imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy fan va ta'limning bu yangiliklari universal huquq va shaxs erkinligi masalalariga ham o'z ta'sirini o'tkazishi, o'z navbatida, bugungi kunda bioetikani o'rganish, rivojlantirish dolzarb ekanligini dalili sanaladi [2]. Shu bois, maqolada ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, analiz, sintez kabi umumilmiy va umumfalsafiy usullari qo'llanildi hamda tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'rganishimizcha, Aristotelning fazilatlar nazariyasi bioetikaning dastlabki falsafiy-axloqiy negizi sanaladi. Hozirda «fazilat» tushunchasi insonning ijobiy axloqiy sifatlarining umumlashgan xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Aristotel axloqqa oid tushunchalarni mavhum g'oyalar sifatida emas, balki insonlar hayotida, ularning baxtga intilishlarida, odamlarning ongli faoliyatida, ya'ni insonlarning haqiqiy hayotida ahamiyatli ekanligini tushuntirishga intildi. Ushbu izlanishlarga ko'ra, uningcha, jasorat, ehtiyotkorlik, saxiylik, shuhratparastlik, do'stlik, rostgo'ylik, xushmuomalalik kabi xislatlar insonning asosiy fazilatlarini sanaladi [3]. Aristotelning qarashlari miloddan avvalgi davr insonlari hayotidan kelib chiqqan bo'lsada, ular bugungi kunda ham barchaga tegishli. Biz tadqiqotimizda bularning qatoriga insonparvarlikni shakllantiradigan omillarni, ya'ni mehr, muruvvat, rahm-shafqat kabi fazilatlarni kiritish lozim, deb hisoblaymiz.

Inson hayoti ehtirolarga ko'r-ko'rona ergashish uchun berilmagan. Odamlar uchun ehtirolarning nafaqat ortiqchasi, balki etishmasligi ham halokatlidir, chunki ikkisidan buzqlikka xos bo'lgan axloqsizlik kelib chiqishi mumkin. Axloqiy fazilat bu ikki buzqlik o'rtasidagi o'rta holatdir. Bizning fikrimizcha, shifokorlik kasbida mehr-muhabbat, muruvvat, rahm-shafqat, bemorga e'tiborlilik, uning dardini his eta olish, sog'lig'ini yaxshilash uchun astoydil harakat qilish kabi fazilatlar bo'lishi muhim sanaladi. Bemor sog'lig'i va hayoti uchun yuqori mas'uliyatli bo'lish va kasbiy burchini insonparvarlik bilan uyg'unlashtirish shifokor odob-axloqining asosini tashkil etishi zarur[4].

Bioetika ta'limoti shakllanishida utilitaristik ezgulik konsepsiyasining o'rni alohida. «Utilitarizm» atamasi lotincha «utilitas» - foyda, manfaat, degan ma'noni anglatadi. Utilitarizm nazariyasining asoschilari XVIII-XIX asrlarda yashagan ingliz faylasuflari Devid Yum, Ieremiya Bentam, Djon Mill hisoblanadi. Utilitaristik nazariyalarga ko'ra, odam harakatining natijalari, foyda yoki zararni baholashdan kelib chiqadi. Shunga qaramay, bu harakatlar go'yo orqa fonda turgandek bilinmaydi yoki umuman hisobga olinmaydigan sabablarga bog'liq. Utilitarizm nuqtai nazariga ko'ra, xatti-harakatlar, agar bu nomaqbul yaxshilikning oshishiga olib keladigan bo'lsa ham, axloqiy jihatdan ma'qullanadi. Masalan, sog'liq, go'zallik, bilim, zavq, lazzat kabilar shunga taalluqli bo'lishi mumkin.

Shu sababli, tibbiyot, san'at, fan kabi sohalarda insonning axloqiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan faoliyati ahamiyati yoki axloqiy baholanishi lozimligi e'tirof etiladi. Utilitaristik nazariyada foyda ko'rishning yagona prinsipi tan olinadi, unga quyidagicha izoh berish mumkin: har bir axloqiy tanlovning natijasi zarar keltirmasligi kerak. Chunki biz har doim harakatlarimizning ijobiy va salbiy oqibatlari yoki tomonlarini ko'ra olishimiz kerak. Agar minimal zarar keltirsa ham, yaxshi bog'liqlikni ta'minlash yo'lini qidirish lozim. Ushbu qarashlar bugungi kunda biologiya fanlari va tibbiyotda o'tkaziladigan tadqiqotlarga taalluqli sanaladi. Bizningcha, ularning ziyonidan ko'ra foydasi ko'p bo'lishi lozim, bunday tadqiqotlarda hech kimning hayoti xavf-xatarga qo'yilmasligi darkor deb, qat'iy hisoblaymiz. Har bir insonning hayoti noyob va betakror, shu sababli u daxlsiz bo'lishi lozimligi har bir shifokor, har bir insonning e'tibori markazida bo'lishi shart[5]. Demak, insonparvarlik – inson hayotini noyob, betakror, oliy qadriyat deb bilish, shu asosda inson hayotiga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadigan tamoyil sanaladi.

I.Kantning (1724-1804) axloqiy burch haqidagi ta'limoti (etika) bioetikaning falsafiy negizi sanaladi. «Tibbiy deontologiya» atamasi (yunoncha. deontes – burch va logos – mantiqiy so'z, ta'limot; ya'ni burch haqida ta'limot) o'tgan asrning 30-yillarida paydo bo'ldi, unga ko'ra, «Nafaqat shaxslarning xatti-harakatlari va ularning natijalari, balki ularning maqsad va intilishlarini baholash bilan bog'liq holatlarni ham o'rganishga xizmat qiladigan nazariya yaratildi». Biroq, deontologik mazmunga asoslangan birinchi nazariya I. Kantning etikasi edi. Ingliz utilitaristik pozitsiyadagi faylasuflardan farqli o'laroq, I.Kant mavhum fikrlash orqali axloqning asosiy qonunlarini tushuntirdi. «Bizning burchlarimiz ongimiz asosidir, ular foyda yoki hamdardlik tuyg'ularidan kelib chiqmaydi, balki inson ongining xususiyatini anglatadi»[6], deb hisoblaydi I.Kant. Deontologik yondashuv nuqtai nazaricha, harakatlarimiz, birinchi navbatda, burchlar (majburiyatlar) va huquqlarga nisbatan tushunchalarni baholashda qo'llaniladi. Shunga muvofiq, bu foyda keltirishi uchun emas, balki o'z burchimizni bajarayotganimiz uchun buni qilishga majburiy. Masalan, bemorni biron-bir narsada aldash noto'g'ri, chunki u nafaqat bemor yoki uning qarindoshlariga ziyon bo'ladi, balki yolg'on - noto'g'ri xatti-harakat hisoblangani uchun ham uni ishlatish nojoiz sanaladi.

Aksariyat hollarda, utilitaristik nazariyalar kabi, deontologik nazariyalar monistik shaklga egadir, bunda fundamental prinsip sifatida faqat bitta prinsip qabul qilinadi. Misol uchun, I.Kant axloqiy qarashlarining asosi hisoblangan kategorik imperativ mutlaq axloqiy qonun sifatida Injilda yozilgan «Odamlar sizga qanday munosabatda bo'lishlarini istasangiz, siz ham ularga shunday munosabatda bo'ling», deb e'tirof etilgan axloqning «oltin qoidasi»ga juda yaqin. Bu ob'ektiv tamoyil, I.Kant so'zlariga ko'ra, aql-idrok amri bo'lib, uni iroda bajarishi majburiy.

Bunday ob'ektiv qonunga bo'ysunish, I.Kantning so'zlariga ko'ra, harakatning axloqiyligini belgilaydi. Kategorik imperativ ob'ektiv ravishda zaruriy tarzda ma'lum bir harakatni o'zida ifodalaydi. I.Kant «Faqat bir vaqtning o'zida uni umumbashariy qonunga aylantirishni istasangiz, unda o'zingiz xohlaganingizcha ish tuting», deb kategorik imperativni izohladi. Bizningcha, shifokor doimo o'z irodasini bemor sog'lig'i va hayotini saqlash, himoya qilishga bo'ysundirishi lozim, shunda u insonparvarlik tamoyiliga rioya etgan deb hisoblash mumkin.

Olim, gumanist va inqilobchi P.A.Kropotkin (1842-1921) o'zining «Etika» asarida axloqning naturalistik nazariyasini ilgari surgan bo'lib, Ch.Darvin va boshqa evolyusion nazariya tarafdorlarining qarashlaridagi hayvonot olamiga mansub bo'lgan o'zaro yordam fenomeni umuminsoniy axloqqa ham tegishli ekanligini asosladi va «universal axloq» tushunchasini yaratdi. P.A.Kropotkin XIX asrning 60-yillarida Sibirga ekspedisiya paytida tabiat hodisalarini o'rgandi, hayvonot olami va jamiyatni yillar davomida kuzatgan, shu asosda dalillar keltirgan tabiatshunos, antropolog, tarixchi va iqtisodchi olimlar tomonidan yaratilgan ta'limotlarni tahlil qildi hamda evolyusiya jarayonida o'zaro yordam tamoyili turning yashab qolishida zaruriy shartlardan biri ekanligini e'tirof etdi»[7]. Naturalistik nazariyada bioetikaviy hodisalar o'rganilgan, shuning uchun unga yaqin ta'limot hisoblanadi. Fikrimizcha, insonparvarlik o'zaro yordam tamoyilidan hosil bo'ladi. Hayotda inson insonga, sog'liqni saqlashda esa shifokor bemorga yordam berishi insonparvarlikni taqozo etadi.

XX asrning birinchi yarmida amerikalik axloqshunos V.Ross tomonidan ilgari surilgan axloqiy majburiyatlar nazariyasi plyuralistik qarash deb nom olgan. Plyuralistik yondashuvning afzalligi shundaki, u bizning kundalik axloqiy tajribamizga juda yaqin. Odatda, biz bitta tamoyil yoki qoidaga amal qilmaymiz, garchand bir-biriga zid bo'lsa ham har xil normalarni hisobga olamiz. «Munosabatdosh» deb atash mumkin bo'lgan bunday yondashuv bilan prinsip va qoidalarga rioya etishdan yoki aniq vaziyatlarning o'ziga xosligini to'liq hisobga olishdan bosh tortmaymiz. «Munosabatdosh» yondashuvining mohiyati shundan iboratki, muayan prinsipdan kelib chiqadigan majburiyatlar buzilishi mumkin, ammo rad etilmaydi. Shu bilan birga, prinsiplarning har biri o'z ahamiyatini saqlab qoladi, bunda ustun va unga bo'ysunadigan prinsiplarni aniqlash masalasi ahamiyatli hisoblanadi [8]. Har qaysisi har doim ham amal qilmasada, lekin ma'lum bir vaziyatda boshqalar bilan ziddiyatga kelmaguncha u yoki bu prinsip qo'llanilishi mumkin. Agar bu vaziyatda boshqa prinsip taqozo etgan talablar majburiy bo'lsa, unda biz birinchi prinsipdan kelib chiqadigan talablarga zid harakat qilish huquqiga egamiz. Masalan, Injildagi «o'ldirma» pand-nasihatini har qanday o'ldirishga taqiq deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Hatto, Injilga qat'i rioya qilib yashagan yahudiylar qavmida ham o'zini himoya qilish maqsadida o'ldirish, urush paytida dushmani o'ldirish yoki eng yuqori jazo sifatida jinoyatchini

o'ldirishga ruxsat etilgan. Hozirgi vaqtda ham yuqoridagi uch holat qarama-qarshiligi Injildagi pand-nasihatga zid kelsa ham, ammo ularning har biri axloqiy prinsip sifatida qo'llanilishi majburiydir: o'zini himoya qilish, Vatanni himoya qilish, adolat o'rnatishda. U yoki bu «oqlangan» qotillik turi shuning uchun amalga oshiriladi. Bizningcha, tibbiyotni insonparvarlashtirishda shifokor tomonidan bioetika prinsiplari qo'llanilishini nihoyatda muhim deb sanaymiz, zero shifokor, eng avvalo, bemor manfaatini ko'zlagan holda o'z kasbiy burchini amalga oshirishi lozim.

O'zining «Adolat nazariyasi» kitobida Dj.Rolz refleksiv muvozanat g'oyasini ilgari surib, «Axloq falsafasining asl maqsadi bo'lgan halollik va adolat avvalida tanlanishi kerak bo'lgan axloqiy qarorlarimizga mos keladigan tamoyillarga aylanishi kerak, shuning uchun ushbu tamoyillar adolat hislarimizni tavsiflaydi»[9], deb fikr yuritadi u. «Shuni tan olish kerakki, bizning anglangan qarorlarimiz, shubhasiz, adolat hislarimizni tushuntirishda, barcha sharoitlar uchun o'zgarmagan holda asosli bo'lishi kerak»[10], deb hisoblaydi. Darhaqiqat, adolat mezonlari barchaga birdek bo'lishi shart. Dj. Rolz «Insonning adolat tuyg'usini yaxshilab ko'rib chiqish, odil sudlovning muayyan tushunchasini sinashdan oldin uning fikrlariga mos keladigan narsa sifatida emas, aksincha, uning fikrlari muvozanat bilan aks ettirilgan bo'lishi kerak»[11], degan fikrni bildiradi. Ko'rib turganimizdek, bu holatga turli xil qarashlardan biriga rozi bo'lish uchun o'z mulohazalarini qayta ko'rib chiqqanidan yoki asl e'tiqodiga (yoki tegishli qarashiga) qaytganidan yoxud qarashlarni inson o'zi tahlil qilib, o'lchab olgandan so'ng erishiladi. Bilamizki, shifokor o'z faoliyatida adolat tamoyiliga asoslanishi, har bir bemorga e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Shifokor bemorning fiziologik va ruhiy holatini chuqur o'rganishi va tahlil qilishi lozim, bunda esa uning kundalik faoliyatida bioetikaviy bilimlar zaruriy asos bo'la oladi.

Postmodernistik etikaning vakillari J.F.Liotar, M.Fuko, J. Derrida qarashlariga ko'ra, bioetika, xavf va noaniqlik xukm surgan jamiyatga tatbiq etiladigan, axloq maqomini qayta ko'rib chiqish maqsadi va umumiy xususiyatlar bilan farqlanishi mumkin. Fikrimizcha, bioetika shifokor axloqi, kasbiy burchi va mas'uliyatni turli vaziyatlar uchun muayyanlashtiradi hamda kasbiy faoliyatida qo'llash uchun zamin tayyorlaydi. Bu axloqiy nazariyalarning barchasi bioetika prinsiplari shakllanishida asos, poydevor bo'lib xizmat qildi, deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, AQShda bo'lib o'tgan Kongress komissiyasi yuqorida sanab o'tilgan axloqiy nazariyalar asosida o'zining mashhur Belmont hisobotida bioetikaning shaxs avtonomiyasi, xayr-saxovat va adolat prinsiplarini shakllantirdi. Shaxs avtonomiyasi I.Kantdan, saxovatlilik prinsipi J.S.Milldan, adolat prinsipi esa Dj.Rolz falsafiy-axloqiy qarashlaridan olindi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, amaliy muhabbat, rahm-shafqat, o'zaro bog'liqlik, sheriklik kabi bioetikaviy tamoyillari shakllanishida P.A.Kropotkinning naturalistik

axloq nazariyasi muhim rol o'ynadi. V.Ross tomonidan ilgari surilgan axloqiy majburiyatlar nazariyasi postmodernistik axloq nazariyalari javobgarlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi bioetikaviy tamoyillarni yanada to'liqroq ochishga imkon berdi. Aynan shu tamoyillar industrial jamiyatda inson, bemor huquqlarini ta'minlashga, ya'ni tibbiyotni insonparvarlashtirishga hissa qo'shdi, deb hisoblaymiz hamda yangi ilmiy yo'nalish bo'lgan bioetikani fan sifatida shakllanishi uchun nazariy va uslubiy zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Умирзакова Н.А. Таълимни инсонпарварлаштириш контекстида биоэтиканинг онтологик ва гносеологик жиҳатларининг методологик таҳлили: фалс. фанлари ... доктори дисс... – Тошкент: ЎЗМУ, 2022, - 133 б.
2. Umirzakova N.A. The Roles of Bioethics in the Formation of Professional Competence of Students of Medical Universities in Uzbekistan // Eubios journal of Asian and international ejaib. Vol. 31(5). July. 2021. – P. 258-260.
3. Мишаткина Т.В. Социальная биоэтика сквозь призму глобальной биоэтики. – Минск.: ИВЦ Минфина. 2018. – С. 517.
4. Умирзакова Н.А. Биоэтика фанининг интегративлик хусусиятлари / Фалсафа ва ҳаёт // Халқаро илмий журнал.- 2024. №1 (24). - Б.42-48.
5. Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо бўлиши, фан сифатида шаклланиши ва ўрганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик таҳлили // Фалсафа ва ҳаёт. – Тошкент, 2020. - №1(8). - Б. 56-69.
6. Кант И. Основоположения метафизики нравов // Кант И. Собр. соч.: В 8 т. Т. 4. М., 1994. С. 195.
7. Пустовит С.В. Глобальная биоэтика: становление теории и практики (философский анализ). – М.: Арктур, 2009. – С. 77.
8. Умирзакова, Н. А. (2020). Биоэтика как ценностная ориентация в профессиональной компетентности врачей. Гуманитарный трактат, (77), 4-7.
9. Джон Ролз. Теория справедливости. / под редакцией В.В.Целищева. Издательство Новосибирского университета, 1995.- ISBN 5-7615-0365-4.
10. ўша манба: 1995.- ISBN 5-7615-0365-4.
11. ўша манба: 1995.- ISBN 5-7615-0365-4.